

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR

VAZIRLIGI



ILMIY
AXBOROTNOMA

2023

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI

- НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА
- SCIENTIFIC BULLETIN OF
NAMANGAN STATE UNIVERSITY



ISSN:2181-0427

journal.namdu.uz





BOSHLANG'ICH TA'LIMDA XALQARO DASTURLAR

Qurbonova Maftuna Faxriddinovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Iqtidorli talabalarni ilmiy tadqiqot faoliyatini
tashkil etish bo'limi boshlig'i, P.f.f.d.(Phd)

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim tizimida olib boriladigan xalqaro baholash dasturining zarurati, boshlang'ich ta'limdagi muammolar, o'qish savodxonligini oshirish usullari va zamonaviy ta'lim muhitini yaratish to'g'risida fikr yuritilgan

Kalit so'zlar: PIRLS, o'qish savodxonligi, individual qobiliyat, tushunish ko'nikmalari, zamonaviy talablar, axborot matn, o'qib tushunish.

МЕЖДУНАРОДНЫЕ ПРОГРАММЫ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация: в данной статье рассматривается необходимость международной оценочной программы в системе начального образования, проблемы начального образования, методы повышения читательской грамотности, создания современной образовательной среды.

Ключевые слова: PIRLS, грамотность чтения, индивидуальные способности, навыки понимания, современные требования, информационный текст, понимание прочитанного.

INTERNATIONAL PROGRAMS IN PRIMARY EDUCATION

Abstract: this article discusses the need for an international assessment program in the primary education system, problems in primary education, methods of improving reading literacy, and creating a modern educational environment.

Key words: PIRLS, reading literacy, individual ability, comprehension skills, modern requirements, information text, reading comprehension.

Kirish

PIRLS – boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qib tushunish darajasini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqot dasturidir. Boshqacha qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o'qish va o'qitishni yaxshilash uchun ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga oid ma'lumotlarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturidir.[1]

Shuningdek, PIRLS, yosh o'quvchilar tomonidan maktabda va maktabdan tashqarida ta'lim olishning katta qismini tashkil etuvchi, ya'ni badiiy tajriba orttirish, ma'lumot olish va undan foydalanish ko'nikmalarini baholash kabi ikkita keng qamrovli maqsadlarni ifodalaydi.

Adabiyotlar tahlili

Yana shuni aytish mumkinki, ushbu dastur zamon bilan hamnafas qadam tashlaydi hamda o'zining baholash mezonlarini zamonaviy talablarga muvofiq ravishda takomillashtirib boradi. Bunga misol sifatida, 2021-yilda o'tkazilgan tadqiqotda o'quvchilarga birinchi marta raqamli formatdagi topshiriqlar taqdim etildi. Raqamli formatga o'tish bilan birga, internet

muhitida boshqariladigan ePIRLS onlayn o'qishni kompyuterda baholash kabi yangiliklar boshlang'ich ta'limda ilk bor qo'llanish zarurati paydo bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi 5712-son Farmonida 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan.[2]

Shuningdek, konsepsiya doirasida o'quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish kompetensiyalari va malakalarining rivojlanishiga alohida urg'u berishni hisobga olgan holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta'lim dasturlari va yangi davlat ta'lim standartlarini joriy etish, o'quvchilarning bilim darajasini baholashda xalqaro PISA, TIMSS, PIRLS va boshqa dasturlarda doimiy ishtirok etish nazarda tutilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Ta'lim tizimidagi xalqaro baholash dasturlari tarixi aslida 1958-yilda bir qator Yevropa davlatlari va AQSH tomonidan Gamburg shahrida IEA Xalqaro ta'lim muvaffaqiyatini tekshirish uyushmasiga (International Association for the Evaluation of Educational Archivement) asos solindi. Uyushma nodavlat ilmiy tashkilot bo'lib, unga xalqaro ta'lim dasturlarida mashhur bo'lgan pedagog olim B.Blum, psixometrik olim R.L.Torndike a'zo bo'lganlar [3]. Uyushmaning maqsadi ta'limning sifati va tarixiy rivojlanishini, ta'limdagi an'analarning o'zgarishini empirik dastur natijalari bilan to'ldirishdan iborat edi. Shuningdek, asosiy maqsad dastur natijalari asosida ta'lim jarayonini yagona mezonlar asosida xalqaro doirada taqqoslash bo'lgan [4]. Uyushma tuzilguniga qadar dunyoning yetuk olimlari turli davlatlarda o'quv jarayonining madaniy-ijtimoiy jihatdan tadqiq etib chiqishgan. 1960 yilda Xalqaro ta'lim muvaffaqiyatini tekshirish uyushmasi (IEA) tomonidan birinchi xalqaro taqqoslash dasturlari o'tkazila boshlandi. 1964 yilda Xalqaro ta'lim muvaffaqiyatini tekshirish uyushmasi (IEA) tomonidan matematika fani bo'yicha birinchi xalqaro baholash dasturi – FIMS (The First International Mathematics Study) o'tkazildi. Mazkur baholash dasturining asosiy tashkilotchilaridan biri Germaniya xalqaro pedagogik dasturlar instituti (DIPF Deutsche Institut für Internationale Paedagogische Forschung) bo'ldi. Ushbu baholash dasturi 7-sinf o'quvchilariga mo'ljallangan.

1966 yildan 1973 yilgacha 21 ta davlatlar ishtirokida ta'lim bo'yicha dunyoda mashhur olimlar, jumladan, J.B.Keroll (J.B.Caroll) tashabbusi bilan "Oltita fan bo'yicha dastur" (Six Subjects Survey) o'tkazildi. Mazkur baholash dasturida 6 ta fan: tabiiy fanlar, adabiyot, o'qish, ingliz tili, fransuz tili chet tili sifatida, shuningdek, siyosiy ta'lim fanlari bo'yicha baholash dasturi o'tkazildi. 1990-yillar boshida esa Xalqaro ta'lim muvaffaqiyatini tekshirish uyushmasi – IEA tomonidan savodxonlik bo'yicha 9-14 yoshli o'quvchilarga mo'ljallangan baholash dasturi (Reading Literacy Study) o'tkazila boshlandi [5]. Bu baholash dasturi keyinchalik o'tkazilgan PIRLS/IGLU baholash dasturiga turtki bo'ldi.

Tahlil va natijalar

PIRLS baholash tadqiqotlarida Finlyandiya, Yaponiya, Rossiya kabi muvaffaqiyatli ishtirok etib kelayotgan rivojlangan davlatlar ta'limining o'ziga xos quyidagi jihatlari tahlil qilindi.

o'qituvchilar o'qitish jarayoni qanday amalga oshiradi?

fanlardan ta'lim sifatini oshirishda o'qituvchilar va maktab rahbariyatining ishtiroki?

ta'lim muhiti va ta'lim shakli ta'lim sifatiga qanday ta'sir qiladi?

O'qish fanidan PIRLS xalqaro baholash dasturiga tayyorgarlik ko'rish uchun Milliy markaz tomonidan tavsiya etilgan mashq daftarlarda 20 ga yaqin badiiy va axborot matnlari berilgan. Ushbu matnlarga "Ulkan tish siri", "Dushman uchun pirog", "Tomdagi gullar", "Uch burgut uchaqol burgut", "G'aroyib tun", "Quyvon zilzila haqida xabar bermoqda", "Tupiklar siri", "Antarktida", "Leonardo Da Vinchi" asarlari kiradi. Bu asarlarni 4-sinfga o'tgandan keyingina tahlil qilmasdan, 2-sinfdan boshlab yoki 1-sinfning 3-choragidan boshlang'ich sinf o'quvchisi savodga o'rgatish jarayonini yakunlangach, o'qituvchi tomonidan. Sinfdan tashqari o'qish darslarida hikoya matni bilan tanishtirish tavsiya etiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchisi nostandart va kulminatsiyon vaziyatlarga boy matnlarni bo'lgan qiziqishi orqali o'qish va tushunishi ortib boradi. PIRLS topshiriqlaridagi matnlar boshlang'ich sinf o'quvchisining yoshi, qiziqishi va bilish darajasiga muvofiq tanlangani bilan ahamiyatlidir.

Xulosalar

PIRLS topshiriqlariga tayyorgarlik ko'rish uchun tavsiya etilgan asarlarni tayanch va tayanch bo'lmagan maktab o'quvchilariga sinfdan tashqari, uyga vazifa va mustaqil ishlash jarayonida:

- Rejalashtirish;
- amalga oshirish (sinab ko'rish);
- baholash;
- qayta ishlash (tatbiq etish) kabi yondashuv asosida o'qish tavsiya etiladi.

Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tomonidan "PIRLS 4-sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash bo'yicha o'tkaziladigan xalqaro tadqiqotga tayyorgarlik ko'rish uchun 1-mashq daftari" da "G'aroyib tun" va "Leonardo Da Vinchi" asarlari bor [6, 7].

"G'aroyib tun" badiiy matn, 18 ta xatboshidan iborat, 3-sinfga mo'ljallangan. Asarning bosh qahramoni Anina ismli qiz hamda gazeta muqovasidagi timsoh bilan bog'liq g'aroyib voqealar tasvirlangan. Asarni o'quvchilarga mustaqil tarzda o'qish uchun topshiriq berishdan oldin asar nomi va mavzusi haqida kirish suhbatini o'tkaziladi. Kirish suhbatida g'aroyib so'zing lug'aviy ma'nosi va bolalar o'zlari qanday vaziyatlarda g'aroyib xodisalarga duch kelgani, "mo'jiza" nima bo'lishi mumkinligi haqida fikr almashiladi.

"Leonardo Da Vinchi", axborot matni, 4-sinfga mo'ljallangan, 9 ta xatboshidan iborat. Leonardo Da Vinchi haykaltaroshligi, bolaligidan ixtirochiligi, xattoki samolyot maketini ham ishlab chiqqanligi haqida hikoya qilinadi

Foydalanilgan adabiyotlarni ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.04.2019 dagi "O'zbekiston respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 08.12.2018 dagi Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997-son qarori.

3. Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi, Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash, Boshlang'ich sinf o'qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma, «Sharq» nashriyoti, Toshkent, 2019 y, 91 b.

4. A. Ismoilov, D. Norboyeva, K. Kucharova, Z. Qosimova, N. Aminova. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining savodxonligini baholash. (o'quv qo'llanma) – T.: Sharq NMAK, 2019. -94 b.

5. Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash (Ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma) «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. Toshkent – 2019.

6. Qurbonova M.F. O'quvchilarning o'quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirishda kouching metodikasi // Maktab va hayot. – Toshkent, 2020. Maxsus son №1, – B. 8-10. (13.00.00 №4)

7. Qurbonova M.F. Mustaqil ishlarni tashkil etish asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan metodlar // Mug'allim ham yzliksiz bilimlendirio'. – Nukus, 2021. – B. 112-116. (13.00.00 №20)

TA'LIM VA AMALIY FAOLIYAT KLASSTERLI MUHITIDA O'QUVCHILARNING KASBIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH KONSTRUKSIYALARI

Qorayev Samariddin Barakayevich

Toshkent Iqtisodiyot va Pedagogika Instituti

Toshknet viloyati, Chirchiq shahri, Shodlik m.f.y., A.Temur shox ko'chasi 198-uy

E-mail: s.qorayev@gmail.com

***Annotatsiya.** Ta'lim va amaliy faoliyat klasteri doirasidagi o'quv va tadqiqot faoliyati o'qituvchi va o'quvchining birgalikdagi ishi shaklida amalga oshiriladi. O'qituvchi o'quvchining bilish faoliyatini o'quv maqsadlariga mos ravishda tashkil qiladi. Kasb-hunar maktab o'quvchilari bunday faoliyat jarayonida bilimga ega bo'ladilar, tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantiradilar (muammolarni ko'rish; savol berish; gipotezalarni ilgari surish; tushunchalarni aniqlash; tasniflash; kuzatish; xulosalar chiqarish, o'z g'oyalarini tushuntirish, isbotlash va himoya qilish), bu kasbiy rivojlanish jarayoniga ijobiy ta'sir qiladi. O'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etishga katta e'tibor beriladi, chunki kichik laborantlik kasbi xomashyoning kirish nazoratini o'tkazishda, materiallar sifatini aniqlashda yuqori darajadagi tashkilotchilik va mustaqillikni talab qiladi. Faoliyatli yondashuvi doirasida ta'lim va amaliy faoliyat klasteri subyektlari o'rtasidagi tarmoq o'zaro ta'siri o'quvchilarning faol ijtimoiy faoliyati va ularning zamonaviy jamiyatga integratsiyalashuvi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish orqali ta'limning ta'lim funksiyalarini to'liqroq amalga oshirish imkonini beradi. Ta'lim va amaliy faoliyat subyektlari klasterli muhitida o'quvchilar kichik laborant rolini bajaradi, Kasb-hunar maktabida asosiy ko'nikmalarga ega bo'ladilar, ularni OTMda kengaytiradilar va talablarga muvofiq real sharoitlarda ishlab chiqarishda o'rganadilar.*

***Kalit so'zlar:** ta'lim va amaliy faoliyat, pedagogik model, empirik tadqiqotlar, tayanch kompetensiya, klasterli muhit.*



49	Подготовительная и заключающая работа учителя над ученическим сочинением по литературе Рахимова М. Э.....	784
50	Oliy ta'lim tizimida zamonaviy islohotlar: Finlyandiya tajribasi Narzulloyeva F. F	789
51	O'quvchilarda ajdodlarimiz milliy-ma'naviy merosi tizimini o'rganish Tojiboeva M	794
52	Ota- ona qaramog'isiz qolgan bolalarni kasb- xunarga yo'naltirish mazmunini Jo'rayev S.	797
53	Klasterli yondashuv asosida " Yuqumli kasalliklar " fanini innovatsion o'qitish mazmuni Sobirova D	805
54	Boshlang'ich ta'limda xalqaro dasturlar Qurbonova M.F ..	809
55	Ta'lim va amaliy faoliyat klasterli muhitida o'quvchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish konstruksiyalari Qorayev S.B	812